

ADABIY TANQID DAHOSI V.G.BELINSKIY AQSH ADABIYOTIDA BADIYLIK

Fayziyeva Komila Axrorovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi.

Тел. +998903148448

E-mail: komila.fayziyeva.85@bk.ru

Annotatsiya. Sarguzasht adabiyotining klassikasi, g'arb janrining asoschilaridan biri, faylasuf, amerikalik satirik yozuvchi F.Kuper ko'pchilik romanlarida Amerikada mahalliy qora tanlilarni shafqatsiz ishlatib, qiynayotgan oq tanli kolonizatorlarni tanqid qilgani uchun u Yevropadan qaytganida Amerikada yaxshi kutib olinmadi .

Kalit so'zlar: dramatismni va chuqur psixologizm, qahramonlarning xarakterlari, quldorlar josusi, ulug' tabiatning keng erkinligi, changalzor o'rmonlar.

GENIUS OF LITERARY CRITICISM V. G. BELINSKY, ARTISTRY IN AMERICAN LITERATURE.

Fayziyeva Kamila Axrorovna.

Senior lecturer at the University of Economics and pedagogy.

Тел. +998903148448 e-mail: komila.fayziyeva.85@bk.ru

Annotation. F. Cooper, a classic of adventure literature, one of the founders of the western genre, philosopher, American satirist, was not well received in America when he returned from Europe because he criticized the white colonizers who cruelly used and tormented the native blacks in most of his novels.

Keywords: dramatism and deep psychology, the characters of the heroes, the spy of slavers, the wide freedom of the great nature, dense forests.

Adabiy tanqid dahosi V.G.Belinskiy AQSh adabiyotida badiiylik, xarakterlar, ruhiy holatlar (psixologizm) kuchli ekani haqida yozdi. U avval Angliya romantizmining yetuk vakili Valter Skottning "Ivanhoe" ("Ayvenggo") romanidagi qahramonning ma'shuqasi Rebekka bilan munosabatlaridagi dramatismni va chuqur psixologizmni maqtaydi: "Bu bir ajoyib kartina sifatida, ishq va dard bilan mast bo'lgan o'quvchining nigohiga bu kartina o'zining chuqur foni bilan qanday cheksiz manzara ochadi". Shundan so'ng V.G.Belinskiy Yevropadan Amerika sahrolariga va changalzor o'rmonlariga kelib, bu joylarni qayta kashf etayotgan qahramonlarning xarakterlarini, psixologiyasini—ruhiy olamini chuqur ochgan Fenimor Kuperning badiiy mahoratini maqtaydi: "Kuperning "Sahroda yo'l ko'rsatuvchi" nomli asari ... dramatik romanning yuksak namunasidir. Umrining eng yaxshi yillarini Amerikaning

katta, qalin o'rmonlarida... o'tkazgan, ulug' tabiatning keng erkinligiga berilib, tangri yaratgan ulug' borliqning hashamatli sukunatida tangri bilan balandparvoz suhbat qurishni istagan, tabiati chuqur va qudratli ruhga ega bo'lgan, arslon kabi mard bo'lishiga qaramay nozik qalb egasi bo'lgan odam hayot yo'lida ayollik olamining go'zal, latif bir namunasiga yo'liqadi va asta-sekin ishq uning butun vujudini egallaydi". Mashuqasi, Angliyadan yangi dunyoga kelgan kichik amaldorning qizi Mabel, otasining adyutanti bo'lgan yosh harbiy yigit Jaspersni sevib qoladi. Bosh qahramon, o'rmon arsloni Patfaynder raqibiga o'z sevgilisini topshirishga ruhiy qudrati yetadi.

Fenimor Kuperning bu romanida sevgi uchligi boshqa asarlardagiga sira o'xshamaydi. V.G.Belinskiy Amerika adibining bu asaridagi lirizm va dramatismni V.Shekspir dahosiga tenglashtiradi. "Bu romanni o'qigan va tushungan odamlar, – deydi V.G.Belinskiy, – unda bir necha ajib badiiy sahnalar borligini, bu sahnalarda hislar kurashi, Patfaynder ruhining bo'roni dahshatli haqqoniylik bilan tasvir etilganini xotirlaydilar. Bu roman (insondagi) o'z borlig'idan voz kechishning yuksak darajasi, dardning buyuk materiyasi, inson qalbining eng asl, eng chuqur sirlarini fosh etishdir. F.Kuper Shekspir kabi, chuqur qalb biluvchi, ruh olamining buyuk rassomidir" . F.Kuper keyingi romanlarida ham ("Josus", "Mogikanlarning so'nggisi"...), adabiy tanqid dahosining yuksak bahosini oqladi. F.Kuperning "Josus" romani qahramoni janub quldorlariga qarshi urushda Shimoliy Amerika prezidenti Jorj Vashingtonga maxfiy xizmat qilgan ekan, dushman haqida boshlig'iga ko'p qimmatli xabarlarini yetkazganidan keyin uni shimolliklar quldorlar josusi deb dorga osadilar, u o'shanda ham shimol uchun maxfiy xizmatda ekanligini bildirmaydi. F.Kuper "Josus" romanida janubdagi quldorlarga qarshi urushning haqqoniy tasvirini, dramatismi tasvirlaydi . Shimolliklar yengib, quldorlik qonun bilan yo'q qilinishi butun dunyoda buyuk voqea edi.

Inson qadr-qimmati, shaxs erkinligi, adolatli davlat boshqaruvi doir ijtimoiy-siyosiy adabiyot bilan jamoat arboblari Tomas Peyn, Tomas Jefferson, Benjamina Franklin shug'ullandilar. Bu yozuvchi va davlat arboblari o'tkir publitsistik maqola va murojaatlari bilan, Parlamentdagi nutqlari bilan yangi davlat boshqaruvida irqchilikka va quldorlikka qarshi kurashdilar. Inson qadri qora tanlilar uchun ham kerak, – dedilar.

Davlat va jamoat arbobi Benjamin Franklin (1706–1790) Virjiniya shtatining kichik bir qishlog'ida tug'ilgan, maktabda bir yil o'qib, yosh daho bo'lib, ko'p fanlarni o'zlashtirgan, so'ng akasining bosmaxonasida harf teruvchi, muharrir, noshir bo'lib ishlaydi. Ingliz faylasufi va adiblari Jon Lokk, Sheftsberi, Addison, Daniel Defo asarlariga qiziqadi. U 17 yoshida Angliyaga borib, noshirlik kasbini yaxshiroq o'rganadi. Jurnalist va noshir sifatida Filadelfiya va Pensilvaniyada gazeta chiqarib, demokratiya g'oyalarini targ'ib qiladi. B.Franklin ijodida eng muhimi Angliya mustamlakachilariga qarshi, Amerika ozodligi uchun kurashda faol qatnashuvi edi .

Amerikada oq tanlilar va mahalliy, qora tanlilarni tenglashtirgan yangi mustaqil davlat rahbariyati B.Franklinni Angliyaga qarshi ittifoqchilardan yordam so‘rash uchun yuboradi .

B.Franklin falsafiy asarlarida davlatga faqat yirik mulkdorlar, boylar rahbarlik qilishiga qarshi chiqadi. U ilm-fanni rivojlantirishni, ma’rifatchilikni, diniy bag‘rikenglikni, xalqaro tinch-totuvlikni quvvatlaydi. Ta’lim sohasida xalq ommasiga yo‘l ochadi. Mahalliy “yovvoyilar” qora tanlilar insonparvar ekanligini ta’kidlab, hindularda politsiya ham yo‘q, – deydi.

Angliya mustamlakachiligidan ozodlik uchun kurashda faol qatnashgan adabiyotning ikkinchi yorqin vakili Tomas Jefferson (1743–1826) “Mustaqillik deklaratsiyasi”ni yozgan va barcha asarlarida odam savdosiga quldorlikka qarshi, inson huquqlari uchun kurashgan. U inson boshqa insonlarni ekspluatatsiya qilishga, qul qilib ishlatishga haqli emas, deydi. U Russo g‘oyalaridan ilhomlanadi. Tomas Jefferson yozgan “Mustaqillik deklaratsiyasi” (“The declaration of Independence”)da quyidagi gumanistik g‘oyalar bor: Biz mana bu haqiqatlar uchun kurashamiz: “Tangri barcha insonlarni teng qilib yaratgan va barcha insonlarga quyidagi huquqlarni ne’mat qilib bergan: yashash huquqi; ozod va baxtli yashash huquqi sanaladi. Davlat, hukumat insonlarning shu huquqlarini himoya qilish uchun xalqning istagi bilan tashkil etilgan. Agar davlatning biror tuzumi mana shu maqsadlarga javob bermay, to‘sqinlik qilsa, bunday davlat tuzumini yo‘qotib, boshqasini o‘rnatish kerak, toki yangi tuzum xalq uchun baxt-saodat keltirsin”.

Tomas Jeffersonning o‘zi Angliyaning mustamlaka tuzumini ag‘darib, yangi, adolatli, mustaqil Amerika davlatini tuzishda faol qatnashdi. U Virjiniyadan saylangan deputat edi. U qonunchilikda Kongressda o‘tkazgan loyihalar, islohotlar: yerga egalikning feodalizm shaklini tugatish, davlat va dinni mustaqil qilish va boshqalar jahondagi boshqa xalqlar hayoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Amerika mustaqillikka erishgach Tomas Jefferson prezident Jorj Vashington davrida tashqi ishlar vaziri, keyinroq demokratiya kuchlari saylovda g‘olib chiqib, AQSh prezidenti vazifalarida ishladi. U uchinchi marta prezidentlikka nomzodini qo‘ymay, Virjiniyaga, qishlog‘iga qaytib, o‘z dalasida fermer bo‘lib, mehnat qildi. Maktab va oliy ta’limni isloh qilish bilan shug‘ullandi. Kelgusida, deydi u, hukumat xalqdan uzoqlashadi, fuqarolar faqat boyluk, mol-dunyo topish uchun intiladi. Boylar kambag‘allarni yana qul qilib ishlata boshlaydi.

Tomas Jeffersonning shogirdi bo‘lgan kichik xizmatchi Tomas Peyn “Oqilona fikr” nomli satirik pamflet asarida Angliya konstitutsiyasini tadqiq qilib, uning xalqqa qarshi ekanligini, qadimgi ikki tiraniya-qirollik va aristokratiyaning davomi ekanligini isbotladi. U Angliyadan Amerikaga kelib, qirol yakka hokimligiga, quldorlikka qarshi, xalq ozodligi, shaxs erkinligi uchun, mustaqil AQSh davlatini tuzish uchun faol kurashga qo‘shildi. U yangi Amerika armiyasining bosh qo‘mondoni general

Vashingtonning adyutanti sifatida g'alaba va mag'lubiyatlarni boshdan kechirdi. Xalq armiyasi qirol armiyasidan yengilgan vaqtlarda Tomas Peyn askarlarni ozod davlat qurishga chaqirib, "Krizis" nomli asarni yozgan. Jorj Vashington bu asarni barcha bo'linmalar oldida o'qitirgan. Tomas Peyn o'n uch qismli bu asarida ozodlik uchun urushlar adolatli ekanini tushuntirdi. U o'zining yozuvchi, adib bo'lib qolishiga ozodlik urushida qatnashgani sabab bo'lganligini ta'kidlaydi.

Vashington Irving kabi mansabdor, elchilik xizmatida bo'lmagan Fenimor Kuper (1789–1951) bolalik chog'larida qishloq maktabida, so'ng Yel kollejida o'qidi. Otasi katta yer egasi, plantator-fermer serjahl Vilyam Kuper 16 yoshli o'g'lini 1806-yilda Yevropaga borayotgan "Stirling" kemasiga matroslikka berdi. F.Kuper yoshlik, yigitlik chog'larida dengiz flotida ishladi, dengizchilarning kemalarini ag'daruvchi bo'ron va dolg'alarda og'ir mehnatini ko'rdi. U Yevropa adabiy hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadida 7 yil Angliyada yashadi, shu yillarda u 7 ta katta romanlarini yozdi. Bu romanlari Amerikada bosilib chiqishi bilan dunyoning barcha tillariga tarjima qilindi. Nataniel Gotorn, Vashington Irving novellada, Fenimor Kuper va Herman Melvil romannavislikda xalqaro shuhrat qozonishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. История американской литературы в 2-х томах. I том. – М.: «Просвещение», 1971. – С. 48.
2. Белинский В.Г. Поэзиянинг хил ва турларга бўлиниши. – Т.: "Ўздав нашр", 1955. – Б.159–160.
3. История амерканской литературы в 2-х томах. I том. – М.: «Просвещение», 1971.– С.37–41.
4. Russo J.J. Илм-фан va sana'tlar ravnaqi axloqning poklanishiga yordam beradimi? // "Jahon adabiyoti" jur. – 2010, № 6. – В. 151.